

## YOSHLAR IJTIMOYILASHUVI: ME’YOR VA OG’ISHLAR

Karimova Kamola Zokir qizi

karimovakamola426@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida sotsiologiya yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20324288>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlar ijtimoiylashuvi jarayoni, uning asosiy omillari hamda jamiyatdagi me‘yor va og‘ishlar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Yoshlarning oilada, ta‘lim muassasalarida va ijtimoiy muhitda shakllanishi, ijtimoiy me‘yorlarga moslashuvi hamda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Shuningdek, globallashuv va axborot texnologiyalarining yoshlar ongiga ta‘siri, ijtimoiy nazoratning ahamiyati hamda sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqola yoshlar tarbiyasi va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga oid ilmiy qarashlarni ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy me‘yorlar, deviant xulq-atvor, og‘ishlar, tarbiya, ijtimoiy nazorat, globallashuv, yoshlar muammolari, ijtimoiy muhit, internet va ijtimoiy tarmoqlar, qadriyatlar.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida yoshlar ijtimoiylashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning ijtimoiy muhitga moslashuvi, jamiyatda qabul qilingan me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirishi hamda ularga amal qilishi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ijtimoiylashuv jarayonida ayrim og‘ishlar, ya‘ni deviant xulq-atvor shakllarining paydo bo‘lishi ham kuzatilmoqda.

Yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga oila, ta‘lim muassasalari, tengdoshlar guruhi hamda ommaviy axborot vositalari kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar ba‘zan ijobiy natija bersa, ba‘zan esa ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqishga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va internet muhitining ta‘siri tobora kuchayib bormoqda. Bu esa yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvor modeliga sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. Ijobiy jihatdan qaralganda, bu jarayon yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa, salbiy jihatdan esa ularni noto‘g‘ri axborotlar, zararli g‘oyalar va ijtimoiy og‘ishlarga moyil qilib qo‘yishi mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy me‘yorlarning buzilishi natijasida jinoyatchilik, giyohvandlik, erta nikoh va boshqa deviant xulq shakllarining paydo bo‘lishi jamiyat uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Shu bois yoshlarni sog‘lom ijtimoiy muhitda tarbiyalash, ularning ongida ijobiy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur jihatlar yoshlar ijtimoiylashuvi va undagi me‘yor hamda og‘ishlarni chuqur tahlil qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Asosiy qism.** Yoshlar ijtimoiylashuvi — bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan me‘yor, qadriyat, xulq-atvor qoidalarini o‘zlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon orqali inson jamiyat a‘zosiga aylanadi va ijtimoiy rolni bajarishni o‘rganadi.

Taniqli sotsiolog T. Parsons ijtimoiylashuvni jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida ko'rib, shaxsning ijtimoiy tizimga moslashuvi qadriyatlar va normalarni qabul qilish orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi [1].

Shuningdek, G. H. Mead “ramziy interaksionizm” nazariyasida shaxsning o'zini anglash jarayoni boshqalar bilan o'zaro muloqot orqali shakllanishini asoslaydi. Unga ko'ra, yoshlar o'z “men”ini jamiyatdagi rollarni o'ynash jarayonida rivojlantiradi [2].

Ijtimoiy me'yorlar — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular jamiyat tartibini saqlashga xizmat qiladi. E. Dyurkgeym ijtimoiy me'yorlarni “ijtimoiy faktlar” sifatida talqin qilib, ularning individga tashqaridan ta'sir qilishini va majburiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U anomiyaning (me'yoriy bo'shliq) paydo bo'lishi jamiyatda tartibsizlik va deviant xulqni kuchaytirishini ko'rsatib bergan [3].

Deviant xulq-atvor — bu jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqishdir. R. Merton “struktural taranglik nazariyasi” orqali deviant xulqning kelib chiqishini tushuntiradi. Unga ko'ra, jamiyatda maqsadlar (masalan, boylik, muvaffaqiyat) va ularga erishish vositalari o'rtasida nomutanosiblik bo'lsa, og'ishlar yuzaga keladi [4]. Masalan, yoshlar muvaffaqiyatga erisha olmaganda noqonuniy yo'llarga murojaat qilishi mumkin.

A. Sutherland esa “differensial assotsiatsiya nazariyasi”da deviant xulq o'rganiladigan xulq ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni, yoshlar jinoyatni yoki og'ishlarni yaqin muhitdan o'rganadi [5].

Ijtimoiylashuv jarayoni qanchalik muvaffaqiyatli kechsa, deviant xulq ehtimoli shunchalik kamayadi. Aksincha, oilaviy nazoratning sustligi, ta'limdagi bo'shliqlar va salbiy ijtimoiy muhit yoshlarni og'ishlarga moyil qiladi.

E. Bekkerning “labeling theory” (yorliq qo'yish nazariyasi)ga ko'ra, jamiyat tomonidan shaxsga “deviant” yorlig'i qo'yilishi uning o'zini ham shu rolni qabul qilishiga olib kelishi mumkin [6].

Globalashuv va raqamli texnologiyalar yoshlar ijtimoiylashuvini keskin o'zgartirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli madaniyatlar bilan tanishadi, ammo bu jarayon noto'g'ri axborotlar va zararli g'oyalar ta'sirini ham kuchaytiradi.

Bu holat ijtimoiy nazoratning yangi shakllarini talab etadi, chunki an'anaviy nazorat mexanizmlari har doim ham yetarli bo'lavermaydi.

So'nggi yillarda yoshlar orasida deviant xulq-atvor, ya'ni ijtimoiy me'yorlardan og'ish holatlari global miqyosda ham, O'zbekiston sharoitida ham dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro tashkilotlar va sotsiologik tadqiqotlar yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari, giyohvand moddalar iste'moli, erta jinsiy faollik, zo'ravonlik va o'z joniga qasd qilish xavfi kabi og'ishlar o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, 10–19 yoshdagi o'smirlar dunyo aholisining 16 foizini tashkil qiladi va ularda ruhiy salomatlik buzilishlari global kasallik yukining asosiy qismini egallaydi. Depressiya va xavotir holatlari aynan shu yosh guruhida eng ko'p uchraydi [7].

WHO tadqiqotlariga ko'ra, o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish 15–29 yosh oralig'ida o'lim sabablarining ikkinchi o'rinida turadi [8]. Bu holat yoshlar orasida psixologik og'ishlar jiddiy muammo ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida giyohvandlik va tamaki iste'moli deviant xulqning eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. WHO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har 5 o'smirdan biri tamaki iste'mol qiladi yoki uni sinab ko'radi [9].

Shuningdek, Yevropa va Osiyo bo'yicha o'tkazilgan YRBS (Youth Risk Behavior Survey) tadqiqotlari yoshlar orasida spirtli ichimlik va narkotik moddalarga qiziqish o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Bu holat ko'pincha ijtimoiy bosim va tengdoshlar ta'siri bilan bog'liq [10].

UNICEF va O'zbekiston hukumatining hamkorligida o'tkazilgan “O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollari” nomli milliy tadqiqotda yoshlar orasida quyidagi muammolar aniqlangan: ruhiy stress va depressiya belgilari, ta'lim va bandlik muammolari, zararli odatlarga moyillik, ijtimoiy muhitdan chetlanish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning katta qismi kelajak haqida noaniqlik va ijtimoiy bosimni asosiy stress omili sifatida qayd etgan [11].

Sotsiolog R. Merton nazariyasiga ko'ra, jamiyatdagi maqsadlar va ularga erishish imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik yoshlarni deviant yo'lga undashi mumkin [6].

Shuningdek, E. Sutherlandning “differensial assotsiatsiya” nazariyasi yoshlar jinoyatchiligi ijtimoiy muhitdan o'rganilishini ta'kidlaydi. Ya'ni, agar yosh salbiy guruhlar bilan ko'proq muloqotda bo'lsa, deviant xulq ehtimoli ortadi [12].

ResearchGate'da chop etilgan tadqiqotga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar orasida agressiya, depressiya, o'zini past baholash va ichki konfliktlar deviant xulq shakllanishiga olib keluvchi asosiy psixologik omillar sifatida qayd etilgan [13].

So'nggi tadqiqotlar internet va ijtimoiy tarmoqlar ham yoshlar og'ish xulqiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda onlayn muhit: zararli kontentga kirish imkonini oshiradi, kiberbulling (virtual zo'rvonlik)ni kuchaytiradi, xavfli guruhlarga qo'shilish ehtimolini oshiradi, Bu esa yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi [14].

**Muhokama va natijalar.** Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida kuzatilayotgan deviant xulq-atvorni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisa birgina omil bilan emas, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar majmuasi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Nazariy yondashuvlar va amaliy statistik ma'lumotlarni solishtirish yoshlar orasidagi og'ishlarning kelib chiqish mexanizmini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

R. Mertonning “struktural taranglik nazariyasi”ga ko'ra, jamiyatda belgilangan maqsadlar va ularga erishish vositalari o'rtasidagi nomutanosiblik deviant xulqni keltirib chiqaradi. Bu nazariya UNICEF va milliy tadqiqotlarda qayd etilgan yoshlar orasidagi ishsizlik, ta'lim va kelajak noaniqligi kabi muammolar bilan bevosita mos keladi. Ya'ni, statistik ma'lumotlar Merton nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shuningdek, WHO tomonidan taqdim etilgan o'smirlar orasida depressiya va o'z joniga qasd holatlarining yuqoriligi E. Dyurkgeymning “anomiyasi” tushunchasi bilan izohlanadi. Jamiyatdagi normativ beqarorlik va ijtimoiy bosim kuchayishi natijasida yoshlar o'z yo'nalishini yo'qotadi va og'ish xulqiga moyillik oshadi.

A. Sutherlandning “differensial assotsiatsiya nazariyasi”ga ko'ra, deviant xulq ijtimoiy muhit orqali o'rganiladi. Bu yondashuv YRBS tadqiqotlarida qayd etilgan tengdoshlar ta'siri va zararli guruhlarning yoshlar xulqiga ta'sirini tushuntiradi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar ko'pincha giyohvandlik, spirtli ichimlik iste'moli va agressiv xulqni yaqin muhitdan o'zlashtiradi. Bu holat nazariy jihatdan o'rganish orqali deviantlik shakllanishini tasdiqlaydi.

E. Bekkerning “labeling theory”si jamiyat tomonidan shaxsga qo'yilgan “deviant” yorliq uning xulqini mustahkamlashini ta'kidlaydi. O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda yoshlar

ba’zan ijtimoiy muhit tomonidan “muammoli” yoki “noto’g’ri yo’ldagi” deb baholanishi ularning ijtimoiy izolyatsiyasini kuchaytirishi aniqlangan.

Bu esa statistik jihatdan qayd etilgan psixologik stress va o’zini past baholash darajasining oshishi bilan bog’liqdir. Zamonaviy tadqiqotlar internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ijtimoiylashuvining yangi maydoniga aylanganini ko’rsatadi. Bu holat ijobiy (ta’lim, axborot) va salbiy (kiberbulling, zararli kontent) ta’sirga ega.

Nazariy jihatdan bu holat Dyurkgeymning ijtimoiy integratsiya g’oyasi bilan bog’lanadi: ijtimoiy aloqalar zaiflashsa, deviant xulq kuchayadi. Statistik ma’lumotlarda qayd etilgan ruhiy salomatlik muammolari ham aynan raqamli muhitdagi bosim bilan kuchaymoqda.

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar quyidagi xulosalarga olib keladi: Yoshlar orasidagi deviant xulq bir omilli emas, balki kompleks ijtimoiy jarayon natijasidir.

Merton va Dyurkgeym nazariyalari statistik ma’lumotlar bilan to’liq mos keladi, ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy bosim holatlarida.

Sutherland nazariyasi tengdoshlar va ijtimoiy muhitning eng kuchli ta’sir manbai ekanini tasdiqlaydi.

Bekkerning “yorliq qo’yish” nazariyasi esa ijtimoiy munosabatlarning psixologik oqibatlarini ochib beradi.

Zamonaviy statistikalar internet va globallashuv deviant xulqning yangi shakllarini yuzaga keltirayotganini ko’rsatadi.

Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida og’ishlar yuzaga kelishining asosiy sabablari ijtimoiy tengsizlik, psixologik bosim, ijtimoiy muhit ta’siri va raqamli makonning nazoratsizligi bilan bog’liqdir. Nazariyalar va statistik ma’lumotlarning uyg’un tahlili shuni ko’rsatadiki, deviant xulqni kamaytirish uchun kompleks yondashuv — ya’ni ta’lim, ijtimoiy siyosat, psixologik qo’llab-quvvatlash va ijtimoiy nazoratni kuchaytirish zarur.

**Xulosa.** Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lib, u shaxsning ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o’zlashtirishi orqali shakllanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, yoshlar orasida kuzatilayotgan deviant xulq-atvor birgina omil natijasi emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar o’zaro ta’siri mahsulidir.

Nazariy yondashuvlar (T. Parsons, E. Dyurkgeym, R. Merton, A. Sutherland va E. Bekker qarashlari) yoshlar xulqidagi og’ishlarni turli jihatlardan izohlab beradi. Empirik statistik ma’lumotlar esa ushbu nazariy qarashlarni tasdiqlab, yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari, ijtimoiy bosim, tengdoshlar ta’siri, iqtisodiy noaniqlik va raqamli muhitning salbiy ta’siri deviant xulqning asosiy omillari ekanini ko’rsatadi.

Taqqoslash va tahlil natijalari shuni anglatadiki, ijtimoiylashuv jarayoni muvaffaqiyatsiz kechgan holatlarda og’ish xulq-atvor ehtimoli ortadi. Aksincha, mustahkam oilaviy tarbiya, samarali ta’lim tizimi, ijobiy ijtimoiy muhit va kuchli ijtimoiy nazorat yoshlar orasida sog’lom ijtimoiylashuvni ta’minlaydi.

Shu bois yoshlar bilan ishlashda kompleks yondashuv — ya’ni ta’lim, tarbiya, psixologik qo’llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va deviant xulq-atvorni kamaytirishga xizmat qiladi.

### References:

1. Parsons T. The Social System. New York: Free Press, 1951.
2. Mead G. H. Mind, Self and Society. Chicago: University of Chicago Press, 1934.

3. Durkheim E. The Division of Labor in Society. Paris, 1893.
4. Merton R. K. Social Structure and Anomie. American Sociological Review, 1938.
5. Sutherland E. H. Principles of Criminology. Philadelphia: Lippincott, 1947.
6. Becker H. S. Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance. New York, 1963.
7. WHO. Adolescent health overview. World Health Organization, 2024.
8. WHO. Suicide worldwide in adolescents and young adults, 2023 report.
9. WHO. Tobacco use among adolescents, global report, 2022.
10. Youth Risk Behavior Survey (YRBS). Centers for Disease Control and Prevention, USA, 2021–2023 data.
11. UNICEF. O‘zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollari, 2020.
12. Merton R.K. Social Structure and Anomie, 1938.
13. Sutherland E.H. Principles of Criminology, 1947.
14. ResearchGate. Youth Social Deviation in Uzbekistan, 2021.